

Date: 19th December-2025

ABDULLA QAHHOR VA ANTON CHEXOV HIKOYALARIDA IJTIMOIIY
HAJVNING BADIHIY TALQINI

Shamsiyeva Huriyat Qulmurod qizi
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning “Ikki yorti bir butun” hamda Anton Chexovning “Xamelyon” hikoyalari qiyosiy-tahliliy jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqotda har ikki asarda aks etgan ikkiyuzlamachilik, manfaatparastlik, mansabga sig‘inish singari masalalari tahlil qilinadi. Qahhor va Chexov hajviy realizmining mushtarak hamda farqli jihatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: hajv, realizm, hikoya, loqaydlik, ijtimoiy muammo, qiyosiy tahlil.

XX asr adabiyoti inson va jamiyat munosabatlarini chuqur tahlil qilishga alohida e’tibor qaratgan davr sifatida xarakterlanadi. Bu jarayonda hikoya janri ijtimoiy muammolarni ixcham, ammo ta’sirchan shaklda yoritish imkonini bergan. O‘zbek adabiyotida Abdulla Qahhor, rus adabiyotida esa Anton Chexov mazkur janrni yuksak bosqichga olib chiqqan ijodkorlar sirasiga kiradi. Abdulla Qahhorning “Ikki yorti bir butun” hikoyasi hamda Anton Chexovning “Xamelyon” hikoyasi mazmunan turli ijtimoiy muhitda yaratilgan bo‘lsa-da, g‘oyaviy jihatdan mushtaraklikka ega. Har ikki asarda jamiyatda keng tarqalgan axloqiy nuqsonlar – ikkiyuzlamachilik, manfaatparastlik va manfaatga qarab fikr o‘zgartirish holatlari hajv orqali fosh etiladi.

Abdulla Qahhor ijodida hajv ijtimoiy tanqidning eng samarali vositasi hisoblanadi. “Ikki yorti bir butun” hikoyasi orqali yozuvchi inson shaxsiyatidagi ichki bo‘linish, axloqiy yaxlitlikning yo‘qligi va manfaatparastlik muammosini yoritadi. Hikoya nomining o‘zi ramziy ma’noga ega bo‘lib, jamiyatda yashayotgan ayrim insonlarning tashqi ko‘rinishi bilan ichki dunyosi o‘rtasidagi farqni anglatadi. Qahhor qahramonlari muayyan vaziyatga qarab o‘z qarashlarini o‘zgartiradi, bu esa ularning ma’naviy zaifligini ko‘rsatadi. Adib xalqona til, qisqa, ammo mazmunli dialoglar orqali kulgili, ammo o‘ylantiruvchi vaziyatlarni yaratadi. Qahhor hajvi kuldirish uchun emas, balki ijtimoiy illatlarni fosh etish, bartaraf etish uchun xizmat qiladi. Hajvning yaqqol namunasini quyidagi parchada ko‘rishimiz mumkin:

– Qalay? - dedi Sulaymonov trubkani qo‘yib, – umringizda shunday qaymoq yeganmisiz?

– Haqiqatdan sigirda bir gap bo‘sa kerak. Men eng yaxshi qaymoqni Marg‘ilonda yegan edim, buning oldida uni atalangan sut desa bo‘ladi. Xushbo‘yligini ayting, - dedi Kamolxonov.

Sulaymonov qaymoqdan bir qoshiq ichdi-da, birdan afti burushdi, tuflagani joy izladi, tufladi.

– E, o‘lmabsiz, - dedi u og‘zini artib, – axir, bu qatiqku [A.Qahhor Tanlangan hikoyalar]



Date: 19th December-2025

Anton Chexovning “Xamelyon” hikoyasi rus jamiyatidagi byurokratik muhitni nozik kinoya orqali aks ettiradi. Asarning markazida turgan Ochumelov obrazi vaziyatga qarab “tusini o’zgartiruvchi” shaxs sifatida tasvirlanadi. Qahramonning har bir holatda fikrini o’zgartirishi uning mustaqil fikrga ega emasligini ko’rsatadi. Barcha tushunchalar shaxsiy manfaat va mansabga bo’ysundiriladi. Chexov asarda ochiq tanqidga yo’l qo’ymaydi, balki vaziyatning o’zi orqali jamiyatdagi muammoni ochib beradi. Psixologik hajv orqali yozuvchi inson ruhiyatidagi qo’rqoqlik va laganbardorlikni ochib tashlaydi. Asar mazmunida hajv unsurlari Ochumelov nutqida namoyon bo’ladi:

“Ochumelov bir paytning o’zida bir necha bor o’zgaradi: Birovning qo’lini tishlagani uchun sayoq kuchukni yo’qotmoqchi bo’ladi. Uni generalning iti deb eshitgach zotli kuchuklardan ekanini aytib qo’lini tishlatgani uchun da’vogarni ayblaydi”. [Chexov A. Tanlangan asarlar.]

Har ikki hikoyada asosiy g’oya – ikkiyuzlamachilikni fosh etishdir. Biroq badiiy yondashuvda ayrim farqlar mavjud. Birinchidan, Qahhor hikoyasida milliy ijtimoiy muhit yaqqol seziladi, Chexov esa umumiy byurokratik muhitni tasvirlaydi. Ikkinchidan, Qahhor tanqidni keskin va ochiq shaklda olib borsa, Chexov kinoya va betaraflik orqali o’quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Uchinchidan, Qahhor hajvi ijtimoiy xarakterga ega bo’lsa, Chexov hajvi psixologik xarakter kasb etadi.

Shuningdek, Abdulla Qahhor tili jonli, xalqona va obrazlidir. Har bir so’z ijtimoiy mazmun yuklaydi. Chexov esa sodda, qisqa va betaraf til orqali kuchli ta’sir ko’rsatadi. Har ikki adib uchun ixchamlik badiiy mahorat mezonini hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhorning “Ikki yorti bir butun” va Anton Chexovning “Xamelyon” hikoyalari turli adabiy muhitda yaratilgan bo’lsa-da, mazmunan mushtarakdir. Har ikki asarda jamiyatdagi axloqiy inqiroz, ikkiyuzlamachilik va mansabparastlik hajviy realizm asosida yoritilgan. Tahlillarimiz orqali Qahhor milliy ijtimoiy muammolarni keskin hajv orqali ochib bergani, Chexov esa, umuminsoniy muammolarni nozik kinoya bilan ifodalaganiga guvoh bo’lamiz. Ushbu asarlar Sharq va G’arb hikoyachiligida hajv janrining yuksak namunasi sifatida muhim ilmiy ahamiyatga ega

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qahhor A. Hikoyalar. – Toshkent: Fan, 1985. – 285 b.
2. Chexov A. Tanlangan asarlar. – Moskva: 1975. – 342 b.
3. Qahhor A. Asarlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 305 b.
4. Qo’shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1988. – 315b.
5. Qo’shjonov M. Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor. – Toshkent: Fan, 1973. – 152 b.